



## UVAYSIYNING MUSTAQILLIKKACHA VA MUSTAQILLIKDAN KEYIN O‘RGANILISHI

**Muallif:** Jumaboyeva Shohista Ma‘rufjon qizi <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi stajyor-doktoranti <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20225943>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Uvaysiy ijodining mustaqillikgacha va mustaqillikdan keyingi davrlarda o‘rganilish xususiyatlari qiyosiy-tahliliy asosda tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida sovet davri adabiyotshunosligida ustuvor bo‘lgan ideologik yondashuvlar va ularning Uvaysiy ijodini talqin qilishga ko‘rsatgan ta‘siri yoritiladi. Maqolada ikki davr o‘rtasidagi metodologik va mazmuniy farqlar aniqlanib, Uvaysiy ijodining haqiqiy badiiy-falsafiy mohiyati mustaqillik yillarida kengroq ochilgani asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Uvaysiy, mumtoz adabiyot, tasavvuf, ilohiy ishq, sovet davri, mustaqillik davri, adabiyotshunoslik.

Uvaysiy merosining ilmiy o‘rganilishi turli tarixiy bosqichlarda turlicha metodologik asoslarda amalga oshirilgan. Xususan, sovet davrida ustuvor bo‘lgan mafkuraviy yondashuvlar uning ijodini ma‘lum darajada tor talqin qilishga olib kelgan bo‘lsa, mustaqillikdan keyingi davrda esa milliy va ma‘naviy qadriyatlar asosida yangi ilmiy qarashlar shakllandi. Mazkur maqolaning maqsadi — Uvaysiy ijodining mustaqillikkacha va mustaqillikdan keyingi davrdagi o‘rganilish xususiyatlarini tarixiy-madaniy kontekstda tahlil qilish, ularning o‘zaro farqli jihatlarini aniqlash hamda zamonaviy adabiyotshunoslikdagi o‘rnini belgilashdan iborat. Uvaysiy ijodini o‘rganishda turli metodologik yondashuvlar qo‘llaniladi. Sovet davrida asosiy metod sifatida tarixiy-materialistik yondashuv ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, mustaqillikdan keyingi davrda quyidagi ilmiy yondashuvlar keng qo‘llanila boshladi. Bularga misol qilib germeneytik tahlil (matnning ichki ma‘nosini ochishga qaratilgan), tasavvufiy talqin (ramziy obrazlar va ilohiy ishq konsepsiyasini izohlash) komparativistika (boshqa mumtoz shoirlar bilan qiyoslash) va gender yondashuvi (ayol ijodkor sifatidagi o‘ziga xoslikni o‘rganish) kabilarni misol qilish mumkin.

Bu metodlar Uvaysiy ijodining ko‘p qatlamli mohiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sovet davri adabiyotshunosligida mumtoz merosga nisbatan ideologik yondashuv ustuvor bo‘lgan. Natijada, diniy va tasavvufiy mazmun ko‘pincha ikkinchi darajaga tushirildi yoki butunlay cheklab qo‘yildi. Uning g‘azallaridagi ishq, tasavvufiy atamalar faqat haqiqiy ma‘nosida tushinildi. Buni Aziz Qayumovning “Qo‘qon adabiy muhiti”dagi satrlari yanada aniq ifodalaydi.

“Shoira g‘azallarida chiroyli, dono, ammo beparvo yor obrazi real tasvirlarda ifodalanadi. Lirik qahramon unga uzoqdan to‘yib termuladi, uning kelishgan xatti-harakatidan bahra topib, har qanday fidokorlikka tayyor turadi, muhabbat bilan uning portretini chizadi, o‘zining unga bexad sadoqati va sevgisini izhor etadi:



Jon tasadduq boshing uzra chirmagan dastoringa,  
Bosh tasadduq so'zlagan shaxd-u shakar guftoringa.  
Ko'z tasadduqdir seni xurshid tal'at husnunga,  
Qaddi dolim ham tasadduq chun alif raftoringa...  
Onqadar so'rdim tabiblardin bu dardimg'a davvo,  
Vaslidin o'zga davvo yo'q dedi ul bemoringa.

Bu misralarda qanchalik chuqur insoniy tuyg'ular bayon etilgan! She'rning qahramoni ham, uning mahbubi ham real tirik insondir. Oddiy misralarda ravon va ta'sirli ifodalarda shoira sevgili qalbning hayajonlari, orzu-intilishlarini kuylaydi" [1:244].

Ko'rinadiki, bu misralardagi ishqi ilohiy nazardan qochirilib, insonning insonga muhabbati deb talqin etilgan. Bundan tashqari, sovet mafkurasi ta'sirida Uvaysiy ijodi asosan ijtimoiy tengsizlikni aks ettiruvchi ijod sifatida ham baholandi.

Kuyib kul qildi jismim ishq o'ti, men kimga aylay dod,  
Kulim ko'kka sovurdi hajr bodi, dod ila bedod.  
Gul ishqidin emas bulbulg'a shevan qilmog'i tun-kun,  
Kelib rahmi, ko'rib ahvolimi doim etar faryod [1:56].

Ana shunday alamli faryodlar Uvaysiy ijodining o'ziga xos xususiyati bo'lib qoladi. Nafis va pokiza qalb egasi bo'lgan shoira qorong'u zamonadan bo'g'ilib nola qiladi, atrofni o'ragan muhitda hukmron bo'lgan zulm, istibdod, uchiga chiqqan adolatsizlik, nohaqlik, inson huquqining tamomila yer bilan yakson qilinishidan qattiq iztirob chekadi. Zulmat qafasiga qamalib qolgan qushdek behuda urinib, najot yo'lini istaydi, ammo uni topolmay asta-sekin umidsizlik yo'lga tusha boshlaydi. O'zining achchiq qismati va mashaqqatli taqdiriga ko'nikadi [5:246].

Mehnat-u balolarg'a muhtalo Uvaysiyman,  
Qayda g'am eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman.

Bu biryoqlama qarash natijasida shoira nazarda tutgan asosiy g'oyalar chetda qolib, faqat zamona qiyinchiliklaridan ezilgan ayol qismati bosh o'ringa chiqadi. Mustaqillikkacha Uvaysiy ijodiga ko'proq ayollar taqdirini yorituvchi she'riyat sifatida urg'u berilgan. Bunga misol tariqasida shoiraning "Anor" chistonini ham keltirish mumkin.

Sovet davri adabiyotshunosligida Uvaysiyning "Anor" chistoni asosan ijtimoiy mazmun nuqtai nazaridan talqin qilinib, unda ayollar taqdiri va feodal jamiyatdagi tengsizlik masalalari umumiy tarzda yoritilgan. Xususan, Abdulla Qayumov va uning davriga mansub tadqiqotlarda ushbu chiston orqali ayollarning jamiyatdagi og'ir ahvoli ko'rsatilgani qayd etiladi, biroq ramziy obrazlarning chuqur tasavvufiy yoki psixologik talqini yetarli darajada ochib berilmaydi. Mustaqillikdan keyingi davr adabiyotshunosligida esa "Anor" chistoniga nisbatan yondashuv sezilarli darajada kengaydi. Endilikda tadqiqotchilar uning nafaqat ijtimoiy-tanqidiy, balki ramziy, tasavvufiy va estetik qatlamlarini ham chuqur tahlil qila boshladilar. Xususan, anor ichidagi donalarning "parda ortidagi qizlar" sifatida talqin qilinishi orqali ayol ruhiyati, ichki iztirob va erksizlik masalalari yanada nozik va ko'p qirrali yoritildi. Shunday qilib, agar sovet davrida mazkur chiston ko'proq ijtimoiy tengsizlik timsoli sifatida talqin

qilingan bo'lsa, mustaqillikdan keyingi tadqiqotlarda uning badiiy-falsafiy va ramziy mohiyatiga ustuvor e'tibor qaratildi. Bu holat adabiy matn talqinining davr tafakkuri bilan chambarchas bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Uvaysiy ijodi mavzulariga to'xtalar ekanmiz, aytib o'tish kerakki, uning she'riyati ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi manba sifatida Sovet davri adabiyotshunosligida alohida e'tibor markazida bo'lgan. Shoiraning "Ilm o'rgan, ey ko'ngil, jaholatdan yiroq bo'l..." mazmunidagi baytlarida ilm-ma'rifatga da'vat etilishi tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy ongini uyg'otishga qaratilgan g'oya sifatida talqin qilingan. Xususan, bu davr olimlari Uvaysiy she'riyatida jaholatga qarshi kurash va ma'rifat orqali jamiyatni taraqqiy ettirish g'oyalarini asosiy yo'nalish sifatida ko'rsatganlar. Natijada, shoiraning tasavvufiy-falsafiy qarashlari ikkinchi darajaga tushirilib, uning ijodi ko'proq ma'rifatparvarlik va ijtimoiy mazmun doirasida izohlangan. Bunday yondashuvda shoira ijodining ichki ruhiy-falsafiy qatlamlari yetarli darajada ochilmadi. Masalan, Uvaysiy she'rlarida tez-tez uchraydigan "yor", "visol", "hijron" kabi tushunchalar ko'pincha oddiy sevgi timsollari sifatida talqin qilingan. Aslida esa ular tasavvufiy ramzlar bo'lib, ilohiy haqiqatni anglatadi.

Qo'ydi masjidg'a qadam sajdai komil zohid,  
Na uchun qiblagohim qoshig'a moyil zohid,  
So'rdi dunyoni huzurin tunda toat qilibon,  
Borsa ul ro'zi jazo jannatga dohil zohid.  
Ahli olam oni domidin omon topqon emas,  
Nafsu shayton boshini kesguvchi qotil zohid [2:78].

Yuqoridagi zohidlik tarannum etilgan baytlarni ham o'sha davr qiyinchiliklaridan to'ygan Uvaysiy bu dunyodan umid uzib, u dunyoga bog'ladi deb baholadilar. "Shoira ana shunday murakkab zamondan, ana shunday shaxslardan qutulish yo'lini dunyodan chekinishda, zuhd-taqvoga berilib, narigi dunyoga umid bog'lashda ko'rdi. Bunday qarorga shoira darhol kelib qolmagan. U albatta qarshilik ko'rsatgan, turli qarama-qarshiliklar uning fikrini chulg'agan. Bu qarama-qarshiliklar shoiraning ayrim she'rlarida ko'zga tashlanib turadi. Ammo nihoyat "zamona kulfati" ta'sirida chekinishga majbur bo'lgan. Demak, shoiraning dunyodan yuz o'girishiga, zuhd va umidsizlik yo'liga kirishiga uning atrofini o'ragan mudhish muhit va zulmatli zamona sabab bo'ldi. U iste'dodli shoirani ma'naviy halokatga haydadi. Insonparvarlik, xalqparvarlikning qo'rqmas jarchilari G'oziy, Mahmur, Hoziq va boshq ilg'or fikrli shaxslarni halokatga olib kelgan feodal voqeligi Uvaysiy ham qurbon qildi" [5:246].

Uvaysiydan bizga ko'plab janrlarda ijod namunalari yetib kelgan. Xususan, uning uchta dostoni bo'lib, ulardan biri shahzoda Hasan to'g'risidagi dostonidir. Dostonning asosiy g'oyasi yaxshilik va adolatni targ'ib etish bo'lsa-da, ammo voqealarning mantiqiy rivoji yomonligining yaxshilik ustidan g'alaba qozonishga olib keladi. Bu ma'lum darajada Uvaysiyning o'zi yashagan zamonaga bergan xarakteristikasi edi [5:247].

Bu davr tadqiqotchilari — G'ani Karimov va Aziz Qayumov — Uvaysiy ijodini o'rganishga katta hissa qo'shgan bo'lsa-da, ularning ishlarida mafkuraviy cheklovlar seziladi. Bularga misollarni yuqorida ko'rib o'tdik.

Mustaqillik yillarida adabiyotshunoslikda tub burilish yuz berdi. Milliy merosni qayta baholash jarayoni boshlanib, mumtoz adabiyotga nisbatan yangi yondashuvlar

shakllandi. Masalan, Uvaysiy ijodi tasavvufiy-falsafiy g'oya asosida qayta talqin qilindi. Uvaysiy she'riyatida ishq — bu ilohiy haqiqatga yetishish vositasi sifatida qaraladi. Ishq orqali inson ruhiy poklanishga erishadi.

“Ishq meni kuydirdi, kul bo'ldim ammo tirikman,  
Bu dard ila topdim men, borliq ichra bir ma'noni” [1:173].

Bu baytda ishqning transformatsion kuchi aks etgan.

“Uvaysiy she'riyatning bosh mavzusi- ishq. Moddiy ehtiyotsizlikning, ma'naviy ehtiyojning ulg'ayish ishq, haqiqiy ishq, majoziy ishq. Xullas, shoira asarlaridagi ishqning mohiyati juda keng. Navoiy, Fuzuliy, Bedil kabi faylasuf shoirlarni o'ziga ustoz deb bilgan, ularning an'analarini davom ettirgan Uvaysiy ham ishq vositasi bilangina haqiqatni, dunyo, yashash va tiriklik mohiyatini anglash mumkin deb tushunadi. Ishq yo'lga kirmagan, Haqqa muhabbatsiz kimsaning yo'ldan adashishi muqarrar ekanligini inkishof etadi:

Uvaysiy, olma boshing zikri fikri yor yodidin,  
Suluki ishq aro beyodi Haq yo'ldin adoshihdur [4:340].

“Dard, dardmandlik – shoira she'riyatning bosh mohiyati. Uvaysiy mahzun, ko'nglini vayron etadigan narsa esa bu- e'tiqodsizlik, loqaydlik, riyokorlik. Uni butun umr qiynagan og'riq o'tkinchi olamning lahzalik farog'atlariga aldagan, qul bo'lgan “dardsizlar zahmidan bemorlik”:

Istasam marham ajab ermaski, sendin, ey tabib,  
Dardsizlar zahmidin bemordurman ishqida [4:342].

Bu misollardan ko'rish mumkinki, mustaqillikdan so'ng Uvaysiy ijodiga shu paytgacha qaralmagan tomonlardan qaraldi. Uning she'riyati o'zining ichki ma'no sirlarini ocha boshladi. Yuqoridagi masralar bizga Uvaysiy lirikasidagi ishq masalasini to'g'ri tushunishimizga asos beradi. Shoira asarlaridagi ishq- keng ma'nodagi yaralmish va u orqali yaratuvchiga bo'lgan muhabbatdir. U mahbuba, vahdati vujud, ilohiy birlik haqidagi tushunchalarini, qarashlarini izhor etar ekan, olam tashqi ko'rinishidan- moddiy, ichki mohiyati bilan esa- ilohiy, degan tasavvurda turadi. Zamonaviy tadqiqotlarda Uvaysiy ijodi inson ichki olamini ifodalovchi noyob manba sifatida baholanmoqda. Shoira she'rlarida iztirob, umid, sabr va ishq kabi holatlar chuqur psixologik aniqlik bilan berilgan.

Yana shuni alohida ta'kidlash zarurki, Uvaysiy ijodi ayol ijodkor sifatida alohida e'tiborga sazovor. Uning she'rlarida ayol qalbining nozik kechinmalari, jamiyatdagi o'rni va ichki erkinlik masalalari aks etadi. “Shoiraning anor chistonida bir qancha maqsadi birgalikda mujassamlashgan. Avvalo, unda tabiatning noyob mevasi anor sifatlarini tasvirlashni nazarda tutadi. Ikkinchidan, o'z davridagi ayollar qismatining murakkab manzarasiga e'tibor qaratadi. Uchinchidan, shu paytgacha nazardan chetda qolib ketgan yana bir muhim masala, ya'ni anorni ramziy obraz darajasiga ko'targan, dunyo mohiyati borasidagi shoir nuqtai nazari badiiy talqin etiladi. Uvaysiy ijodida anor foniy dunyo tilsimlarni o'zini mujasamlashtirgan ramziy timsol darajasiga ko'tariladi. Uvaysiy anorning tashqi ko'rinishini chek-u chegarasiz niliy gumbaz bo'lib ko'rinuvchi dunyoga qiyoslayapti. Tasavvuf ta'limotida gulgun rang, qizil rang,

bag'riqqonlik -hijron, ayriliq. Tangri vaslidan yiroqlikni ifodalovchi ramzlardir. Qizlar, insonlar ilohiy jamol zuhuri. Yuzlaridagi parda- solik yoki oshiq bilan Alloh Taolo o'rtasidagi to'siq, ya'ni foniy dunyo timsoli. Demak, xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ushbu to'rtlikda shu paytgacha biz talqin etib kelgan zohiriy mazmundan tashqari teran falsafiy, botiniy g'oya ham mujassamlashgan. Shoira anorda dunyo dunyo timsolini tasavvur etyapti. Anor dunyoga o'xshaydi, u shunday bir gumbazki, na eshigi bor, na tuynugi. Unda ko'plab insonlar makon qurgan. Ularning holidan xabar olinsa, u yerdagi hayotning asl mazmuni haqida tafakkur qilinsa, haqiqat ayon bo'ladi: ilohiy visoldan mahrumlik. Bu yo'lda moddiy dunyoning to'siq, parda ekanligi" [4:344].

Maqola avvalida xuddi shu chistonga mustaqillikdan oldingi tahlillarni bergandik. Solishtirish mumkinki, mustaqillikdan keyingi tahlillar har tomonlama chuqur va asosli. Bu yo'nalishda Ibrohim Haqqulov va Naim Karimov kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Ularning ilmiy ishlari orqali yanada kengroq ma'lumot hosil qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ikki davrni chuqur qiyoslash quyidagi ilmiy xulosalarni beradi:

1. Metodologik farqi:

Sovet davri: monistik (biryoqlama) yondashuv

Mustaqillikdan keyin: plyuralistik (ko'p qirrali) yondashuv

O'z o'rnida bu g'azallarni yanada chuqur tushunish imkonini beradi.

2. Mazmuniy talqin farqi:

Oldin: ijtimoiy mazmun ustuvorligi

Hozir: tasavvufiy va falsafiy mazmun ustuvorligi

Mazmuniy talqinning erkin bo'lishi asarga majburan davr mafkurasini singdirishdan saqlaydi.

3. Estetik baholash:

Oldin: funksional (g'oyaviy) baholash

Hozir: badiiy-estetik mukammallik asosida baholash

Demakki, har bir davr Uvaysiyini o'zicha talqin qilgan, ammo uning haqiqiy mohiyati faqat erkin tafakkur sharoitida ochila boshladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қажумов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент: Фан, 1961. – 247 б.
2. Увайсий. Девон. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 56.
3. Увайсий. Кўнгил гулзори. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 78.
4. Uvaysiy. Mazmun ma'dani. – Toshkent: Akademnashr, 2010.  
Jumaxo'ja N. Adizova I. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B. 344.